



Bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning tahlili

Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi

Ma'mun universiteti katta o'qituvchisi

Yaxshimuratova Mumtozbegin Sobirjon qizi

Ma'mun universiteti talabasi

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot davrida bank tizimida ham qator ishlar amalga oshirildi. Mazkur maqolada bank tizimidagi islohotlar va ularning tahlili yoritilgan bo'lib, bir qator takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank, transformatsiya, xalqaro moliya institutlari, to'lov tizimi, onlayn banking, mobil banking, risk menejmenti.

So'nggi yillarda bank tizimini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda.

Transformatsiya jarayonlari xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiya kelgusi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Strategiyaga muvofiq banklarni kompleks transformatsiya qilish doirasida banklar tomonidan xalqaro moliya institutlari va xorijiy konsalting kompaniyalari bilan birgalikda asosan 5 ta yo'nalishda;

- korporativ boshqaruvni takomillashtirish;
- banklarda zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish;
- bankning tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish;
- bankning risk-menejment tizimini takomillashtirish



- bankning biznes modellarini optimallashtirish orqali ular faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda.

Amalga oshiriliyotgan islohotlar va amaliy chora-tadbirlar natijasida hozirgi kunga kelib jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushi 2020 yildagi 86 foizdan 78 foizgacha kamaydi. Ipoteka-bankdagi davlat ulushi to'liqligicha xususiylashtirilganidan so'ng mazkur ko'rsatkich 70 foizgacha pasayishi kutilmoqda.

Shuningdek, FATF tavsiyasi va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda bankdagi ulushlarga egalik qilish bo'yicha bank aksiyadorlariga qo'yiladigan talablar yumshatildi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ham iqtisodiy sohada faol islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, ilg'or bank tizimini joriy etish, sohada raqobat muhitini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 41-moddasida bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilab qo'yilgani aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy xuquqlarining mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Ayni chog'da bank tizimidagi ochiqlik va shaffoflik aholi va mijozlar uchun katta qulayliklar yaratdi. Oxirgi yetti yilda bank-moliya sohasida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar natijasida hozir ulardan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda.

Aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi har yuz mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keluvchi bank xizmatlari ko'rsatish nuqtalari soni ko'rsatkichi o'rtacha 54 taga yetib, yil boshiga nisbatan 5 bandga ko'paydi.

Bugungi kunda mijozlar nafaqat to'lovlarni onlayn rejimida bankka bormasdan turib amalga oshirish, balki bank hisobvaraqlarini ham masofadan identifikatsiya qilish orqali ochish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa, mijozlarga bank va to'lov xizmatlaridan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada oshirmoqda.



Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan to'lov tashkilotlarining xizmatlaridan foydalangan holda mobil operatorlar xizmatlari uchun – 10,5 trln so'm, kommunal xizmatlar uchun – 8,9 trln so'm, davlat xizmatlari uchun – 6,1 trln so'm, kredit to'lovlari uchun – 3,6 trln so'm mablag' o'tkazilgan.

Bank hisobvarag'iga egalik qilish ko'rsatkichining yosh guruhlari bo'yicha qaralganda, ularning asosiy qismini 18-29 yosh (4,6 mln kishi) va 30-39 yosh (4,7 mln kishi) guruhlardagi aholi tashkil etishini, shuningdek, 60-69 yosh guruhiga mansub aholining 89 foizida (eng yuqori ko'rsatkich) bank hisobvaraqlari mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Ammo hozirgi kunda katta yoshdagi aholining bank ilovalaridan foydalanish va ular bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni mustaqil bajarish savodxonligi kamligi sababli quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mahallalarga chiqqan holda maqsadli guruhlarini o'qitish uchun yaratilgan mexanizm va tizimlar asosida tadbirlar qamrovini kengaytirish
- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda “edutainment” (qiziqarli tarzda o'qitish) shaklini targ'ib etish
- Banklar va to'lov tizimlari ilovalarini sodda, tushunarli va qulay qilib ishlab chiqish

Transformatsiya jarayonining samarali kechishi esa aholi va tadbirkorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini ortishiga, bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish borasida qonunchilikni yanada takomillashtirishga huquqiy asos bo'ladi. Bu esa 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raimovna, Y. Y., & Sardor San'at og, M. (2023). OZIYQ-OVQAT TOVARLARI BOZORIDA MARKETING MUNOSABATLARI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(10), 37-43.
2. Якубова, Ю. (2024). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI.



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(1).

3. Якубова, Ю. Р. (2023). ОЗИҚ-ОВҚАТ БОЗОРИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(10), 49-54.

4. Mumtozbegin, Y. (2023). ZAMONAVIY BANK XIZMATI TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(10), 59-61.

5. Akhmedova, D. K. K. (2023). DIGITALIZATION OF RETAIL LENDING PRACTICE IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Frontline Marketing, Management and Economics Journal, 3(05), 25-32.

6. Sharipov, K. (2023, May). ANALYSIS OF THE PRACTICE OF ESTABLISHING DIGITAL BANKS AND THEIR BRANCHES IN UZBEKISTAN. In International Conference " Law, Economics and Tourism sciences in the modern world". (Vol. 1, No. 2, pp. 23-28).

7. Qudratovna, Z. G., & Matyoqubovna, J. M. (2023). O'ZBEKISTONDA INTERNET MARKETINGNI RIVOJLANISH HOLATI VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARIDAGI O'ZGARISHLAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(10), 44-48.

8. Qudratovna, Z. G., & Ildarovna, A. G. (2023). THE IMPORTANCE OF SOCIAL NETWORK MARKETING, WHICH IS A PART OF INTERNET MARKETING IN THE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTERPRISES. Academia Science Repository, 4(04), 5-9.

9. Abdikarimov , Z. ., Sharipova , Z., Masharipova , H., & Ahmedova, D. . (2024). BÖLGEDE REKABET GÜCÜNÜN ARTTIRILMASINDA KÜMELENME YÖNETİMİNİN KULLANILMASI KONUSUNDA YABANCI



DENEYİM. Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences, 3(8), 31–37.

Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/dptms/article/view/16782>

10. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). Семейное предпринимательство и его эффективность. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 154-157.